

“Ishbilarmon” tadbirkorlar kirdikorlari

Mamlakatimizda tadbirkorlik bilan shug‘ullanish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Qabul qilinayotgan qonun hujjatlarida ularning huquqlari kafolatlanib, imtiyozlar, yengilliklar taqdim etib borilmoqda. Berilgan imkoniyatlardan samarali foydalanib faoliyatini kengaytirayotgan, yangi ish o‘rinlari yaratayotgan tadbirkorlarning soni kundan kunga ko‘paymoqda. Respublikamizda davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari (bog‘cha) faoliyat yuritib kelayotganligi va ularni qo‘llab-quvvatlash uchun davlatimiz tomonidan subsidiyalar ajratilayotganligi to‘g‘risida ko‘pchilik biladi yoki eshitgan.

Albatta, buning natijasida oxirgi yillar davomida nodavlat maktabgacha ta’lim sektori keskin oshdi, bolalar qamrovi 27 foizdan bugungi 74 foizgacha ko‘tarildi, minglab ish o‘rinlar yaratildi.

Biroq, xalqimiz “guruch kurmaksiz bo‘lmaydi” deb aytganidek, bunday keng imkoniyatlardan foydalanib, ayrim tadbirkorlar o‘zining foydasini noqonuniy oshirish maqsadida soxtakorlik harakatlarni amalga oshirmoqda.

“Xo‘sh, bular qanday soxtakorlik bilan shug‘ullanyapti...?” deb so‘raysiz. Gap shundaki, 2022-yilning 1-sentyabrdan boshlab maktabgacha ta’lim sohasida inson omilisiz, avtomatlashtirilgan axborot tizimi joriy etilib, u orqali tarbiyalanuvchilarning davomati har kuni elektron qayd etilmoqda va shu ma’lumotlar asosida subsidiyalar avtomatik hisob-kitob qilinib, to‘lanib kelinmoqda.

Bunda, ayrim “ishbilarmon” tadbirkorlar esa bola manfaatidan o‘z manfaatini ustun qo‘yib, jajji go‘daklar hisobiga boyishni maqsad qilib, bolalarning bog‘chaga kelmaganda, ularning davomatini turli usullar orqali sohtalashtirishga urinmoqda.

Bu usullarga e’tibor bersangiz, odamzodning fantaziysi naqadar cheksizligiga hayratda qolasiz.

Demak, 1-USUL: bog‘chaga kelmagan bitta bolani o‘rniga boshqa bolani rasmini axborot tizimiga kiritib, davomatni qayd etish.

Misoldan ko‘rishingiz mumkinki, axborot tizimida qiz bolaning FIOsi ko‘rsatilgan bo‘lib, haqiqatda o‘g‘il bolaning fotosurati kiritilgan va davomat qilingan.

Sirdaryo viloyati Boyovut tumani yakka tartibdagi tadbirkor U.M. tomonidan ochilgan oilaviy bog‘chadagi 2020 yilda tug‘ilgan tarbiyalanuvchi Yu.M. (qiz bola)			
Sirdaryo viloyati Boyovut tumani yakka tartibdagi tadbirkor O.B. tomonidan ochilgan oilaviy bog‘chadagi 2017 yilda tug‘ilgan tarbiyalanuvchi O.H.			

Misolda: axborot tizimida 2017 yilda tug‘ilgan (6-7 yoshli) bolaning FIOsi ko‘rsatilgan bo‘lib, 3 yoshga to‘lмаган go‘ dakning fotosurati kiritilgan va davomat qilingan.

2-USUL: bog‘chaga kelmagan bitta bolani o‘rniga yoshi katta odamni davomatni qayd etish.

Surxondaryo viloyati Uzun tumani yakka tartibdagi tadbirkor S.T. tomonidan ochilgan oilaviy bog‘chadagi 2019 yilda tug‘ilgan tarbiyalanuvchi G.Q. (qiz bola)			
--	---	--	---

<p>Surxondaryo viloyati Uzun tumani yakka tartibdagi tadbirkor N.M. tomonidan ochilgan oilaviy bog‘chadagi 2019 yilda tug‘ilgan tarbiyalanuvchi Z.Sh.</p>			
---	---	--	---

Misollarda: axborot tizimida 4-5 yashar bolalarning FIOsi ko‘rsatilgan bo‘lib, haqiqatda uning o‘rniga yoshi katta erkaklarning fotosurati kiritilgan va davomat qilingan.

3-USUL: bog‘chaga kelmagan bolani uning fotosurati orqali (qog‘ozda yoki smartfonda va kompyuterda) davomatni qayd etish.

<p>Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz tumani yakka tartibdagi tadbirkor X.A. tomonidan ochilgan oilaviy bog‘chadagi 2019 yilda tug‘ilgan tarbiyalanuvchi N.M.</p>			
<p>Qashqadaryo viloyati Kitob tumani yakka tartibdagi tadbirkor Yu.Sh. tomonidan ochilgan oilaviy bog‘chadagi 2020 yilda tug‘ilgan tarbiyalanuvchi B.F.</p>			

Misollarda: 4-5 yashar bolalar bog‘cha kelmagan kunda, ularning qog‘ozdagi va smartfondagi fotosurati orqali (haqiqatga bog‘chaga kelgan bolaning yuzi oldiga fotosurat qo‘yilib) davomat qilishga uringan.

4-USUL: bog‘chaga kelmagan bolaning fotosuratini qog‘ozda qirqib olib, davomatni qayd etish.

Surxondaryo viloyati Denov tumani yakka tartibdagи tadbirkor X.Sh. tomonidan ochilgan oilaviy bog‘chadagi 2019 yilda tug‘ilgan tarbiyalanuvchi Z.I.			
Samarqand viloyati Urgut tumani yakka tartibdagи tadbirkor I.R. tomonidan ochilgan oilaviy bog‘chadagi 2019 yilda tug‘ilgan tarbiyalanuvchi M.U.			

Misollarda: bola bog‘cha kelmagan kunda, uning qog‘ozdagi fotosurati orqali davomat qilishga uringan.

5-USUL: davlat bog‘chasi tarbiyalanuvchilarini avtomashinada nodavlat bog‘chaga olib borib, shu bog‘chada davomatdan o‘tkazish.

Namangan viloyati Pop tumani yakka tartibdagи tadbirkorlar G‘.G. va IO.Y tomonidan ochilgan oilaviy bog‘chadagi davomat qayd etilishi			
---	---	--	---

Misolda: Namangan viloyati Pop tumanidagi davlat bog‘chasi tarbiyalanuvchilari

yakka tartibdagi tadbirkorlarga tegishli oilaviy bog‘chalarga Damas avtomashinasida olib borilib, davomatdan o‘tkazilgan.

6-USUL: davlat bog‘chasi tarbiyalanuvchisini, ushbu davlat bog‘chasida turib, nodavlat bog‘chaning nomidan davomatni qayd etish.



Misolda: Jizzax viloyati Paxtakor tumanidagi davlat bog‘chasi tarbiyalanuvchilari yakka tartibdagi tadbirkorlarga tegishli oilaviy bog‘chalar hisobiga davomatdan o‘tkazilgan.

7-USUL: bitta bolani bir nechta bolalar o‘rniga davomatni qayd etish.



Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahri yakka tartibdagi tadbirkor T.B. tomonidan ochilgan oilaviy bog‘chadagi 2020 yilda tug‘ilgan tarbiyalanuvchi N.A.



Misolda: Ikkita tadbirkorga tegishli oilaviy bog‘chalarda bitta bolani ikkita tarbiyalanuvchi (FIOsi boshqa) o‘rniga davomati qayd etilgan.

Respublikamizda 25 ming atrofida nodavlat bog‘chalar faoliyat yuritib kelmoqda. Ularning davomat ma’lumotlari axborot tizimidagi sun’iy intellekt yordamida doimiy tahlil qilinib, bir mingtadan ortiq bog‘chalar yuqorida ko‘rsatilgan noqonuniy usullardan foydalanib, davomat qilganligi Maktabgacha ta’lim agentligi tomonidan aniqlangan.

Ushbu aniqlangan holatlar tegishli tartibda rasmiylashtirildi hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagи 426-son qarori talablaridan kelib chiqib, ushbu bog‘chalarga subsidiya to‘lovlar uch oyga to‘htatildi. Shuningdek, ushbu tadbirkorlarga nisbatan qonuniy chora ko‘rish uchun ma’lumotlar tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etib kelinmoqda.

Biz to‘g‘ri ishlayotgan, ish o‘rni yaratayotgan, ilg‘or innovatsion ta’lim texnologiyalarni joriy qilib, tarbiyalanuvchilarga ta’lim-tarbiya berayotgan xalol tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlaymiz. Xalollik yo‘li bilan olingan daromad albatta xayrli bo‘ladi.

Fursatdan foydalanib, maktabgacha ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarga noqonuniy usullarni qo‘llab, soxta davomat yuritmasligingizni takroran so‘raymiz.

Ma’lumotlarning soxtaligi albatta fosh bo‘lishi va jazo muqarrarligini unutmang !

Maktabgacha ta’lim agentligi ogohlantiradi! Maktabgacha ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar shuni unutmasliklari lozimki bugun tadbirkorlik faoliyati bilan qonuniy shug‘ullanish istagida bo‘lgan fuqarolar uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Noqonuniy faoliyatning oldini olish esa doimiy nazoratda.